



VATAN - MUQADDAS, UNI HIMOYA QILISH SHARAFLI BURCHDIR!

Ro'zmatov Husniddin Husanboy o'g'li

Farg'ona davlat universiteti Harbiy ta'lim fakulteti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7553969>

ARTICLE INFO

Received: 11th January 2023

Accepted: 19th January 2023

Online: 20th January 2023

KEY WORDS

Kelajak, Vatan, Qurolli
Kuchlari, isloh qilish,
sarhadlari, vatanparvarlar.

ABSTRACT

Ushbu maqolada vatan himoyasi dahlsizligini ta'minlash qay darajada sharafligi, "Vatan himoyachilar kuni"ning yurtimizda bayram sifatida e'lon qilinishi, bugungi kunda mamlakatimizda harbiy sohani rivojlantirish va isloh qilish yo'lida olib borilayotgan ishlar to'g'risida fikr yuritilgan. Yurtda vatanni sevadigan, ardoqlaydigan va himoya qiladigan mardlar bor ekan shu yurt doimo yuksalaveradi, gullayveradi. Xar bir el, xar bir millat uchun o'zining tug'ilib o'sgan vatanidan ardoqliroq maskan bo'lmasa kerak.

Ona Vatan! Nima uchun Vatanni ona so'zi bilan yonma-yon ishlatamiz? Chunki, Vatan ham onamiz singari aziz, mehribon va qadrlidir. Inson dunyoga kelmasidan avval onaning vujudida ulg'aysa, dunyoga kelganidan keyin esa endi Ona Vatanda unib o'sadi. Kishining tug'ilganda kindik qoni to'kilgan yer uning Vatani hisoblaniladi. Mana shu Vatani asrab-ardoqlash, ximoya qilish xar bir insonning muqaddas burchidir. Axir donolarimiz bekorga aytishmaganku: "Tug'ilgan yerdan ko'ngil uzilmas".

Demak, ona vatanini sevish, undagi bor narsalarni ardoqlash va sog'inib yashashlik insoniyat fitratida mavjud bo'lgan nozik his-tuyg'udir. Qayerga bormasin kishi o'z vatanini baribir qumsayveradi. Chunki, inson dunyo yuzini ko'rgach birinchi bo'lib vatanidagi havodan nafas ola boshlaydi, vatanidagi tuproqda ilk qadamlarini qo'yib yurishni o'rganadi, dunyoni tanishni shu vatanni anglashdan boshlaydi. Ilk kindik qoni to'kilgan, dastlabki qadamlarini qo'ygan tuproqni himoya qilishlik barchamizning Vatan oldidagi muqaddas insoniylik burchimiz hamdir.

Mustaqillik yillarida yurtimizda davom etayotgan moddiy va ma'naviy taraqqiyot asosida tinchlikni saqlash, iqtisodiyotni rivojlantirish va xalqimiz turmush darajasini yanada yuksaltirish borasida ulkan natijalarga erishildi. Shu maqsadda 1992-yil 14-yanvar` kuni mustaqil davlatimiz tarixida yana bir muhim voqea yuz berdi. Huddi mana shu kun Respublikamiz Qurolli Kuchlari tashkil topdi. 1993-yildan e'tiboran 14-yanvar yurtimizda "Vatan himoyachilari kuni"- deb e'lon qilindi. Bu yil Respublikamiz Qurolli Kuchlari tashkil topganiga 31 yil to'ldi. Bunday qisqa vaqt davomida milliy armiyamiz hech bir mamlakatdan ortda qolmaydigan darajadagi qurol-aslahalarga, jangovor uskunalarga ega bo'ldi. Respublikamiz Qurolli Kuchlarida xizmat qilayotgan askarlarning saviyasi esa ham ma'nan, ham jismonan yuksak darajaga yetib ulgirdi desak aslo mubolag'a qilmagan bo'lamiz.



Yurtitimizda har yili 14-yanvar kuni “Vatan himoyachilari kuni” ga bag’ishlab turli bayram dasturlari, ko’rik-tanlovlar, davra suhbatlari, musobaqalar o’tkaziladi va o’z Vatanga chin sadoqat bilan hizmat qilib kelayotgan bir qator xarbiylarimiz yuksak davlat mukofotlari bilan taqdirlanadi. Bunday dasturlar Vatanimiz himoyachilarini rag’batlantirishga hizmat qilibgina qolmay, atrofdagi yoshlarga vatanga mehr-muhabbat, vatanimiz himoyachilariga nisbatan yuksak ehtirom tuyg’ularini shakillanib borishiga yordam beradi va bo’lajak Vatan himoyachilari ma’naviyatlarini yuqori darajaga ko’tarib, jismonan baquvvat, aqlan yetuk, sergak bo’lib kamolotga yetishishlarida katta ahamiyat kasb etadi.

Muxtasar qilib aytganda, mustaqillik yillarida Qurolli Kuchlarimiz salohiyatini mustahkamlash, zamonaviylashtirish va isloh qilish yo’lida amalga oshirilgan barcha sa’y-harakatlar mustaqilligimizni asrab-avaylash, sarhadlarimiz daxlsizligi, osmonimiz musaffoligi hamda el-yurtimiz osoyishtaligini ta’minlashga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

Yurtimizning birinchi prezidenti Islom Abdug’anievich Karimov aytganlaridek: “Tinchlik va osoyishtalikni asrab-avaylash, himoya qilish faqat muayyan sohalar hodimlarining vazifasi, deganlar qattiq yanglishadilar. Bu yo’lda barchamiz, butun xalkimiz yanada jips bo’lib, hamjixatlikda harakat qilishimiz kerak. O’z uyingni o’zing asra degan gapda hikmat ko’p, uning ma’nosi keng. Zero tinchlik uchun kurashish kerak, uni xech kim yaratib bermaydi”.

Yurt tinchligini himoya qilishda har bir soha vakillari o’z sohasi doirasida hissa qo’shishlari lozim. Masalan o’qituvchi-murabbiylar o’quvchilarga vatan yagonaligi, vatan ximoyasi muqaddas burch ekanini tushuntirib borsalar, o’sib kelayotgan yosh avlod vatanga sadoqat hissi bilan o’sib-ulg’ayib kamol topadi.

Natijada kelajak avlodlarimiz yurt himoyasi naqadar ulkan vazifamiz ekanini qalbdan his qiladilar va bunga qattiq bel bog’lagan vatanparvarlar bo’lib kamol topadilar. Mutafakkirlardan biri shunday degan ekan: “Vatanparvar-o’z vatani kamoloti yo’lida o’z xalqiga muhabbati tufayli moli, kuch-g’ayrati tugul jonini ham ayamaydigan, xalki va vatanining ozodligi, farovonligi uchun bor budini fido qiluvchi insondir”. Bunday vatanparvarlari bor yurt esa doimo tinch, osmoni musaffo, xalqi ahl, rizqi mo’l, hayoti esa farovon bo’ladi.

Bundan tashkari muqaddas dinimizda vatanni himoyalash muqaddas burch qilib belgilanib, bu hizmati uchun juda katta mukofotlar va’da qilingandir. Jumladan: Imom Taboroniy rivoyat qilgan hadisi sharifda Rasululoh (s.a.v.) shunday marhamat qilganlar: “Alloh taolo roziligi yo’lida bir kun chegara hududida posbonlik qilish bir oy kechalari ibodat qilib, kunduzlari nafl ro’za tutishdan afzaldir”.

Haqiqatdan ham, Vatan himoyachisi bo’lishlik eng sharaflig va oliy kasb ekanligini yaxshi bilgan yigitlarimiz har tomonlama, ham jismoniy, ham ma’naviy jihatdan loyiq bo’lishlikni yaxshi anglaydilar, ana shu sifat va hislatlarni egallashga doimo harakat qiladilar. Bu vazifalari bilan ular nafaqat o’z Vatannarini balki, eng yaqinlari bo’lmish ota-onalari, qavmu-qarindoshlari, tug’ilib o’sgan maskanlari, yurtlaridagi barcha tog’u-toshlar, gul va rayhonlarni himoya qilgan bo’ladilar.

Alloh taolodan so’rab qolamizki, jonajon mustaqil yurtimiz sarhadlarini sergaklik bilan qo’riqlayotgan Vatan himoyachilarini O’zining hifzu himoyasida saqlab, diyorimiz osmonini doimo musaffo, tinchligimizni esa barqaror va mustaqilligimizni abadiy qilsin!



References:

1. O'zbekiston Respubikasi Konstitutsiyasi.
2. "O'zbekiston Respubikasi davlat mustaqilligining asoslari to'g'risida"gi O'zbekiston Respubikasining qonuni.
3. "Mudofaa ishlari vazirligini tashkil etish to'grisida"gi farmoni.
4. "O'zbekiston Respubikasi hududida joylashgan harbiy qismlar va harbiy o'quv muassasalari to'g'risida"gi qarori.
5. www.edu.uz
6. www.uz.wikipedia.org